



MHXSLARGA O'TISH SHAROITIDA XARAJATLAR HISOBINI TAKOMILLASHTIRISH

PhD, dots. **Pashaxodjayeva Dildora**

Samarqand iqtisodiyot va servis instituti

ORCID: 0000-0001-8015-957X

phdildora@mail.ru

Niyozova Firuza

Toshkent Kimyo xalqaro universiteti Samarqand filiali

ORCID: 0009-0005-5701-511X

niyazovafiruza1707@gmail.com

Annotatsiya. Mazkur maqolada xalqaro moliyaviy hisobot standartlariga (MHXS) o'tish jarayonida tijorat tashkilotlarida xarajatlar hisobining yuritilishi, mavjud muammolar va takomillashtirish yo'llari IMRAD strukturasi asosida tahlil qilinadi. Tadqiqot davomida xarajatlarni tasniflash, e'tirof etish va hisobot shaklida ifodalashdagi farqlar yoritilib, milliy hisob tizimini MHXSlarga moslashtirish bo'yicha takliflar berilgan.

Kalit so'zlar: MHXS, xarajatlar hisobi, buxgalteriya hisobi, moliyaviy hisobot, xalqaro standartlar, tizim integratsiyasi.

СОВЕРШЕНСТВОВАНИЕ УЧЕТА РАСХОДОВ В УСЛОВИЯХ ПЕРЕХОДА НА МСФО

PhD, доц. **Пашаходжаева Дилдора**

Самаркандский институт экономики и сервиса

Ниёзова Фируза

Самаркандский филиал Ташкентского Международного Университета Кимё

Аннотация. В данной статье на основе структуры IMRAD анализируется ведение учета расходов в коммерческих организациях в процессе перехода на международные стандарты финансовой отчетности (МСФО), существующие проблемы и пути совершенствования. В ходе исследования были освещены различия в классификации, признании и отражении расходов в форме отчетности, а также даны предложения по адаптации национальной системы учета к МСФО.

Ключевые слова: МСФО, учет затрат, бухгалтерский учет, финансовая отчетность, международные стандарты, системная интеграция.

IMPROVEMENT OF EXPENSES ACCOUNTING UNDER THE CONDITIONS OF THE TRANSITION TO IFRS

PhD, assoc. prof. **Pashakhodjaeva Dildora**

Samarkand Institute of Economics and Service

Niyozova Firuza

Samarkand branch of Kimyo International University in Tashkent

Abstract. This article analyzes the accounting of expenses in commercial organizations during the transition to International Financial Reporting Standards (IFRS), existing problems, and ways to improve them based on the IMRAD structure. During the study, the differences in the classification, recognition, and reporting of costs were highlighted, and proposals were made to adapt the national accounting system to IFRS.

Keywords: IFRS, cost accounting, accounting, financial reporting, international standards, system integration.

Kirish.

O'zbekiston iqtisodiyotining jahon moliyaviy bozorlariga integratsiyalashuvi jarayonida buxgalteriya hisobi va moliyaviy hisobot tizimini xalqaro standartlarga moslashtirish zarurati ortib bormoqda. Xalqaro moliyaviy hisobot standartlari (MHXS) moliyaviy axborotning aniqligi, taqqoslanishi va ishonchliligini ta'minlaydi. MHXSlarga o'tish nafaqat hisobot shaklini o'zgartirish, balki buxgalteriya hisobining barcha tarkibiy qismlarini, jumladan, xarajatlar hisobini ham chuqur isloh qilishni talab etadi.

Xarajatlar hisobi tashkilotning moliyaviy natijalarini aniqlash, rejalashtirish va nazorat qilishda muhim o'rin tutadi. MHXSlarga muvofiq xarajatlarni e'tirof etish va tasniflash jarayoni milliy buxgalteriya tizimidan sezilarli farq qiladi. Bu esa tijorat tashkilotlarini yangi yondashuvlar, tizimlar va me'yorlarni o'zlashtirishga majbur qilmoqda. Mazkur maqolada aynan xarajatlar hisobini takomillashtirish nuqtai nazaridan MHXSlarga o'tish jarayonidagi asosiy muammo va imkoniyatlar tahlil qilinadi.

Adabiyotlar sharhi.

Xalqaro va milliy standartlar talablaridan kelib chiqib xarajatlarni quyidagicha tasniflash mumkin:

- 1) Odatdagi faoliyat bilan bog'liq xarajatlar
- 2) Moliyaviy faoliyat xarajatlari
- 3) Ilmiy-tadqiqot va tajriba-konstruktorlik xarajatlari
- 4) Odatdagi faoliyatga bog'liq bo'lmagan xarajatlar.

Mamlakatimiz olimlarining ishlarida daromadlarni tan olish, baholash, foyda yoki zararlarni aniqlash va hisobotda aks ettirishning uslubiy masalalari tadqiq etilgan. Misol uchun, Tashnazarov tomonidan foyda va zararlar hamda boshqa to'plam daromadlar to'g'risidagi hisobotning xalqaro standartlarga muvofiq keladigan shakli taklif etilgan.

Shu bilan birga, Rossiya olimlaridan Popadyuk, Lisovskaya, Krapiventsova, xalqaro miqyosda esa Koweno, Killian kabi olimlar tomonidan ilmiy izlanishlar olib borilgan. Ammo, bu izlanishlar fan miqyosida katta ilmiy-amaliy ahamiyatga ega bo'lsada, ushbu ishlarda daromadlar va foyda hisobini xalqaro standartlar talablariga muvofiqlashtirish, daromadlar (foyda)ni tan olish, baholash, foyda va zararlar to'g'risidagi hisobotni tuzish va taqdim etish masalalari yetarli darajada tadqiq etilmagan.

Xermanson va boshqalar operatsion xarajatlar sotish va ma'muriy xarajatlardan iborat ekanligini ta'kidlashadilar. Ular sotish xarajatlariga sotish bilan mashg'ul bo'lgan personalning ish haqi, ushbu personalning safar xarajatlari, mol jo'natish xarajatlari, reklama, omborxona ijarasi, xaridorlar ta'minoti, zaxiralarni saqlash xarajatlari hamda boshqa xarajatlarni kiritishgan.

Libbi va boshqalar xarajatlar tasnifida sotish, umumiy va ma'muriy xarajatlarni alohida gurux sifatida ajratadi. Ushbu xarajatlarga turli xildagi jumladan, menejment va sotish personali ish haqi hamda maxsulot ishlab chiqarish bilan to'g'ridan-to'g'ri bog'liq bo'lmagan boshqa umumiy xarajatlarni kiritganlar.

Nidlz va boshqalar ham moliyaviy hisobotda operatsion xarajatlarni sotish, umumiy va ma'muriy xarajatlarga bo'ladilar.

Tadqiqot metodologiyasi.

Tadqiqot davomida qiyosiy tahlil, tizimli yondashuv, abstract mantiqiy fikrlash usullaridan foydalanilgan holda 15 son MHXS bo'yicha ilmiy maqolalar tanqidiy o'rganilgan, milliy standartlar asosida qiyosiy solishtiruv asosida jadvallar keltirilgan va ilmiy mushohada qilish natijasida xulosa va takliflar ishlab chiqilgan.

Tahlil va natijalar muhokamasi.

Xarajatlar hisobi buxgalteriya tizimining eng murakkab va mas'uliyatli bo'limlaridan biri hisoblanadi. MHXSlar asosida buxgalteriya hisobini yuritish, ayniqsa xarajatlar e'tirofi, tasnifi va hisobga olish mexanizmlarini qayta ko'rib chiqishni talab qiladi. Aksariyat tijorat tashkilotlari ushbu tizimga texnik va kadrlar jihatidan to'liq tayyor emas. Shu bilan birga, MHXSlarga asoslangan xarajatlar hisobi moliyaviy natijalarning real holatini ko'rsatib, menejmentga strategik qarorlar qabul qilishda ishonchli ma'lumotlar taqdim etadi.

1-jadval

№	Muammo	Tavsif	Tahlil natijasi	Yechim
1	Xarajatlar tasnifi va e'tirofi o'rtasidagi farqlar	Milliy va xalqaro standartlar o'rtasidagi asosiy farqlar, xarajatlar tasnifi, faoliyat turlariga qarab ajratilishi kerak.	Milliy buxgalteriya tizimida xarajatlar ko'pincha faqat naqd pul chiqarish asosida tasniflanadi, bu esa aniq moliyaviy tahlil qilishni qiyinlashtiradi.	MHXSlarga o'tish orqali xarajatlar yanada aniqroq va taqqoslanadigan shaklda aks ettiriladi.
2	Kadrlar malakasi yetishmasligi	MHXSlarga o'tish jarayonida buxgalterlar va moliyaviy menejerlarning malakasining yetarli emasligi.	Moliyaviy xodimlar MHXSni to'liq tushunmagan va amalda qo'llashda qiyinchiliklarga duch kelmoqda.	Malaka oshirish kurslari va treninglar tashkil etish zarur.
3	Innovatsion texnologiyalarni joriy etish zaruriyati	Buxgalteriya hisobini avtomatlashtirish va shaffofligini ta'minlash uchun innovatsion texnologiyalarga ehtiyoj mavjud.	Buxgalteriya tizimi ko'p holatda qo'lda ishlanadi va xatolar yuzaga keladi.	Dasturiy ta'minot va avtomatlashtirish tizimlaridan foydalanish.
4	Xarajatlar hisobi bo'yicha aniq va to'liq ma'lumotning yetishmasligi	Milliy buxgalteriya tizimida xarajatlar haqida to'liq va aniq ma'lumotlar taqdim etilmaydi.	Moliyaviy hisobotlar ba'zida noto'g'ri yoki noaniq tasniflanadi, bu esa qarorlar qabul qilishda muammo tug'diradi.	MHXS asosida xarajatlar bo'yicha aniq va taqqoslanadigan hisobotlar tayyorlanadi.
5	Xarajatlar hisobida qiyinchiliklar va noto'g'ri e'tirof	O'tish jarayonida xarajatlarni to'g'ri e'tirof etish muammolari.	Tashkilotlar ba'zida xarajatlarni noto'g'ri e'tirof etishadi, bu esa moliyaviy natijalarga ta'sir qiladi.	Xarajatlar va daromadlar tasnifini xalqaro standartlarga moslashtirish.

Tadqiqot natijalariga ko'ra, MHXSlarga o'tish jarayonida xarajatlar hisobini yuritishda quyidagi holatlar aniqlangan:

- MHXSlarda xarajatlar faoliyat turi asosida (asosiy faoliyat, moliyaviy, soliqqa oid, boshqa) bo'lib tasniflanadi, milliy tizimda esa bu yondashuv ancha tor doirada yuritiladi.
- Xarajatlarni e'tirof etishda MHXSlar "kelib chiqish tamoyiliga" asoslanadi, ya'ni xarajat foyda olish bilan bog'liq bo'lishi kerak. Milliy tizimda esa xarajatlar ko'pincha naqd pul chiqimi asosida tan olinadi.
- MHXSlarga mos ravishda tashkilotlar xarajatlarni funksional asosda (ishlab chiqarish, sotuv, boshqaruv) ajratishni yo'lga qo'yishi lozim bo'lmoqda.
- Yangi tizimga o'tishda buxgalterlar o'rtasida MHXSdagi xarajatlar bilan bog'liq terminologiyaning yetarlicha o'zlashtirilmaganligi tufayli xatolar soni ko'paymoqda.
- MHXSlarga muvofiq dasturiy ta'minot yetishmasligi xarajatlar bo'yicha to'liq va aniq hisobot tayyorlash imkonini cheklamoqda.

1-jadvalda xarajatlar hisobining xalqaro standartlari asosida yuritilishida yuzaga kelishi mumkin bo'lgan asosiy muammolar va ularga mos bo'lgan yechimlar taklifi keltirilgan.

Mazkur holatda taklif etiladigan asosiy yechimlar quyidagilardan iborat: buxgalterlar malakasini oshirish, MHXSlar bo'yicha amaliy kurslar tashkil qilish, mahalliy dasturiy ta'minotlarni MHXSlarga moslashtirish, qonunchilikda MHXS elementlarini bosqichma-bosqich joriy etish. Bundan tashqari, yirik korxonalarda xarajatlarni faoliyat turlari bo'yicha tahlil qilishga mo'ljallangan modul tizimlarini ishlab chiqish zarur.

Xulosa va takliflar.

Tadqiqot natijalariga asoslanib, shuni aytish mumkinki, MHXSlarga o'tish sharoitida xarajatlar hisobini takomillashtirish tashkilotlar uchun muhim strategik vazifa hisoblanadi. Xarajatlar hisobi xalqaro yondashuv asosida yuritilganda moliyaviy axborotning aniqligi va ishonchligi ortadi. Buning uchun tashkilotlar o'z buxgalteriya siyosatini qayta ko'rib chiqishi, mavjud kadr salohiyatini rivojlantirishi va axborot tizimlarini zamonaviylashtirishi lozim. MHXSlar asosidagi xarajatlar hisobi nafaqat xalqaro talablarga javob beradi, balki tashkilotning ichki boshqaruv samaradorligini ham oshiradi.

Adabiyotlar/Jumepamypa/References:

- EY. (2021). *International Financial Reporting Standards - IFRS*.
 IFRS Foundation. (2023). *IFRS Accounting Standards – Concepts and Application*. 123-125
 Jabborova, M. A. (2021). MHXSlar asosida xarajatlar hisobini yuritishning amaliy muammolari. *Toshkent moliya instituti ilmiy jurnali*. 33-38
 KPMG. (2021). *Adapting to IFRS: A guide for organizations*. 112
 Normurodov, A. (2022). Xalqaro standartlarga o'tish sharoitida xarajatlar hisobi. *"Buxgalteriya va audit" jurnali*, №3. 345-348
 Qonun (2016) O'zbekiston Respublikasi "Buxgalteriya hisobi to'g'risida"gi Qonuni. 223
 PwC. (2020). *IFRS Manual of Accounting*. 39-42.